



PROVIDING ECOLOGICAL EDUCATION TO STUDENTS DURING MUSIC LESSONS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Rakhimov Nurillo Narzullaevich

*Associate Professor (Acting), Department of Art Studies,
Gulistan State Pedagogical Institute
email: gulduinoyatov@gmail.com*

Annotation: This article highlights the increasing relevance of ecological education in the era of globalization. Numerous decrees and orders have been issued by the President and Government of the Republic of Uzbekistan to foster ecological culture among youth. The author shares reflections aimed at addressing these pressing issues within educational institutions by raising awareness and encouraging solutions among students.

Keywords: education, holistic development, aesthetic-ecological, ecological education, human and nature, ecological problems, eco-home, place, entire existence, living beings, environment, field, mountain, hill, forest, soil, water, air, river, nature, cleanliness, pollution, ecological culture.

UMUMTA'LIM MAKtablari MUSIQA MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH

Raximov Nurillo Narzullayevich

*Guliston davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrasi v.b.dotsenti
e-mail: gulduinoyatov@gmail.com*

Anottatsiya: ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida ekologik tarbiya naqadar dolzarb bo'ib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan yoshlarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish to'g'risida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Muallif ta'lif muassasalarida o'quvchi yoshlar orasida ushbu dolzarb muammolarni imkon qadar echimini topishga qaratilgan mulohazalarini bildirgan.

Tayanch so'zlar: ta'lif-tarbiya, barkamol inson, estetik-ekologik, ekologik ta'lif, inson va tabiat, ekologik muammo, eko - uy, joy, butun borliq, mavjudot, tevarak atrof, dala, tog', adir, o'rmon, er, suv, havo, daryo, tabiat, poklik, ifloslashnish, ekologik madaniyat.

Respublikamizda davlat ta'lif-tarbiya siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri yosh avlodni har tamonlama rivojlantirish, barkamol inson etib shakllantirish, ularda yuksak ma'naviy fazilatlar, o'z ona yurti, o'rab turgan atrof muhit, uning tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini tarbiyalash, estetik-ekologik madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir.

Shuning uchun, "2030 yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2025 yil 15 maydagi PQ-184 son



qarorida ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiatni, ekotizimlari, atrof-muxitni bekarorlik va izdan chikishdan asrash, axolining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu uta jiddiy, xayotiy masalalarga axolining barcha katlamlari, ayniksa, yoshlar xissa kushishi zarurligi bilan belgilanishi ta’kidlangan. Qarorda – aholining turli qatlamlari, talabalar va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Yangi daraxt – yangi nafas” respublika ekochempionati; ni o‘tkazish ham alohida belgilab berilgan.

Inson va tabiat munosabatlari, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb. Shuning uchun ham ta’lim tizimida ekologik ta’lim va tarbiya deb ataluvchi ushbu masala muhimligicha qolaveradi. Zero, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona, rejali foydalanish g‘oyalarini har bir o‘quvchi yaxshi tushinib etgandagina, bu ishni muvoffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

O‘quvchilarning ekologik savodxonligi mazmuni tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog‘linish, tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish, tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga mas’ullikni shakllantirishdan iborat.

Ekoliya masalaning keng miqiyosida ekanligi uchun ham tabiatni muhofaza qilish masalasi umumiyo‘rtta ta’lim maktablaridagi aksariyat o‘quv fanlari mazmuniga kiritilgan.

Ekologik ta’lim va tarbiyaning mazmuni keng va turlicha bo‘lib, ularni har bir fan doirasida yoki bir necha fanlarni o‘rganish bilan to‘liq yoritib bo‘lmaydi. Chunki, ekologik ta’lim-tarbiya tarixiy xususiyatga ega bo‘lib, u barcha tuzumlarda tabiat – jamiyat - inson tizimida amalga oshirib kelgingan.

Odamzod doimo tabiat qo‘ynida faoliyat ko‘rsatadi, u bilan uzlusiz munosabatda bo‘ladi. Bu faoliyat oqilona tashkil etilmasa va u bilan munosabat to‘g‘ri o‘matilmasa, inson o‘zi va tabiat uchun muammolardan biri ekologik muammodir.

Insoniyat o‘z taraqqiyotining ilk bosqichlarida tabiatga bo‘ysinadi. Uning stixiyalaridan cho‘chib, ularni bartaraf etolmasdi. Chunki, u hali tabiat qonunlarini bilmasdi. Endilikda insoniyat ham aqlan, ham ma’nana etildi. Tabiatni o‘rgandi, bildi, qurdi, yaratdi, uning stixiyalarini o‘ziga bo‘ysindirdi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda zamon talablariga mos holda atrof-muhit va ekologik munosabatlarni shakllantirib o‘qitishni tashkil etish va harakatga keltirib muhim muammolardan biri.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini erkin tutib saboq olishlari zarur. O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat darslik, dastur materiallari bilan cheklanib qolmasdan, balki, atrof-muhit, hayotdagi, ekologik munosabatlardagi o‘zgarishlarni ham ustalik bilan singdirishga erishish zarur. Dastur va darslik materiallari o‘zgariyotgan hozirgi vaqtida bu ayniqsa, muhimdir.

Ekoliya ta’lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari bu boradagi ijtimoiy-pedagogik muammolardan kelib chiqadi. O‘quvchilarda tabiatga javobgarlik munosabatini shakllantirish – ekologik ta’lim va tarbiyaning bosh maqsadidir. Tabiat va atrof muhitni





muhofaza qilish, unga ongli munosabatda bo‘lib, uning mahsuldorligini oshirish, undan oqilona foydalanish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Olimlar bu muammoni er, tabiat, inson muhofazasi degan uchta muhim masalani o‘z ichiga oladi, deb qoramoqdalar.

“Ekologiya” degan tushunchaning o‘z nima? Eko – uy, joy, logiya –ta’limot, odam yashaydigan tirik mavjudodni muhofaza etish haqidagi tushunchadir.

Ma’lumki, tabiatga e’tibor, mehr yoshlikdan, oiladan, bog‘chadan, mактабдан boshlanadi. Ekologiya ta’lim deganda o‘quvchilarga muayyan maqsadda pedagogik ta’sir ko‘rsatish tushiniladi.

Ekologik bilim, ya’ni ta’limga nimalar kiradi? Olamdagи narsalarning hammasi, butun borliq, mavjudot, tevarak atrof, dala, tog‘, adir, o‘rmon, er suv, havo, daryo, tabiat pokligi va ifloslashnishi, er tarkibini buzilishi, erning zaharlanishi, so‘lim maskanlar, qushlar va havonlarning yo‘q bo‘lib ketishining oldini olish, ariqqa iflos narsalarni tashlash, xonodon, ko‘cha va maydonlarning tozaligi uchun kurash kabilar kiradi. Ularning hammasini sanab o‘tish qiyin.

O‘quvchining, avvalo, uyda – ota-onas, bog‘chada tarbiyachilardan ekologik ta’lim-tarbiya olishlari davr talabidir. Ota-onas farzandiga ekologiya haqida to‘g‘ri tarbiya berib bormasa maktabda berilgan 5-6 soatgina dars bunday tarbiya uchun etarli emas. Ba’zi ota-onalar farzandlariga qo‘lidan kelguncha ozoda tuting, chang-to‘zon qilmang, o‘simgiliklarni behuda yulmang, qushlarni o‘ldirmang, hayvonlarga ozor bermang, ekinlar ustidan yo‘l solmang kabi maslahatlarni beradi. Shuning o‘zi ekologik tarbiyaning boshlang‘ich kurtaklaridir. Ayrim ota-onalar bu masalaga e’tiborsizlik bilan qaraydilar va bu ish ta’lim muassasalarining vazifasiga kiradi deb biladilar.

Bir marta aytib o‘tgan bilan kamlik qiladi, takror-takror eslatib turish kerak. Faqat o‘quvchi tomonidan xatolik, yanglishish, adashish sodir bo‘lgandan keyin aytishdan nima naф. Maktabda ekologik tarbiyani har bir dars, har bir mavzuga qiziqtiraverish o‘rinli emas.

Gazeta va jurnallardagi maqolalardan, badiiy asarlardan misollar keltirib, turmushga, hayotga bog‘lab, uning foydasi tushuntirilsa o‘quvchi ongiga yaxshi etib boradi. Hamma gap o‘qituvchining ekologik bilimga ega bo‘lishiga va uning o‘quvchiga etkazish mahoratiga bog‘liq. Bilim bo‘lgani bilan pedagogik mahorat etishmasa, o‘quvchiga mehr qo‘yib tushuntirilmasa asosiy maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Ekologik tarbiya axloqiy tarbiyaning ajralmas, tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Bolalar musiqa mashg‘ulotlarida o‘rganish orqali tabiatga, Vatanga, ona zaminga qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Biz bolalarni tabiatni sinchkovlik bilan kuzatishga o‘rgatamiz. Ekologik tarbiyani mavsumiy tarzda (kuz, qish, bahor, yoz) fasllarni bog‘lab amalga oshiramiz. Umuman, tabiatga nisbatan bolalarda muhabbat uyg‘ota olmaslik bizning bolalar oldidagi juda katta xatoymizdir. Bizning burchimiz o‘quvchilarimizda ekologik vijdronni uyg‘otishimizdan iboratdir. Ota-bobolarmiz tabiatni ulug‘laganlar, unga sig‘inganlar, sahovatiga ta’zim qilganlar, chunki insonning hayot momoti tabiat bilan bog‘liqdir.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘quvchilarga musiqa darslarida ekologik tarbiya berish keng imkoniyatlarni yaratadi. Buni umumta’lim maktablarining darsliklari misolida ko‘rshimiz mumkin.

Masalan:

I sinf: “Olma” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi; “Kuz” N.Ro‘zimuhamedov she’ri, S.Abramova musiqasi; “Archa bayrami” P.Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi;

II sinf: “Chamandagul” O‘zbek xalq qo‘srig‘i; “Zag‘izg‘on” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi; “Chinnigul” Qambar Ota she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi; “Hakkalar” N.Orifjonov she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi;

III sinf: “Gul terdi gullar” P.Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi; “Boyshechagim omonlik” Qambar Ota she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi; “Lola” I.Muslim she’ri, X.Hasanova musiqasi;

IV sinf: “Boychechak” O‘zbek xalq qo‘srig‘i; “Bahor keldi” O‘zbek xalq qo‘srig‘i; “Lola” O‘zbek xalq qo‘srig‘i; “Bulbulcha” M.Qo‘chqorov che’ri, M.Nasimov musiqasi;

V sinf: ”Oltin kuz fasli” N.Narzullayev she’ri, A.Mansurov musiqasi; “Chumoli” R.Is’oqov she’ri, A.Rasulov musiqasi; “Boychechak” O‘zbek xalq qo‘srig‘i;

VI sinf: “Qiz gul” Ozarbayjon xakq qo‘srig‘i; “Gushlar” V.Ahmedov she’ri, Sh.Yormatov bolalar xori uchun qayta ishlagan;

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, haqiqatdan ham musiqa san’ati orqali ekologik tarbiyani amalga oshirish mumkin ekan.

Ekologiya va ekologik tarbiya muammosi jamiki insoniyat oldida turgan muhim, dolzarb masalalardan hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimining umumta’lim maktabi o‘quvchilarida atrof-muhitga ekologik munosabatni shakllantirishning samarali vosita va usullarini izlab topish, ularni harakatga keltirish bugungi kun talablaridan biridir.

O‘quvchilarda atrof-muhitga ekologik munosabatni shakllantirish muammosini nazariy, metodik va amaliy jihatdan tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘quvchilarda tabiatga ongli munosabatning maqsadi, mazmuni va vazifalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda o‘quvchilarning yoshi va individual – psixologik xususiyatlari hisobga olinadi.

2. O‘quvchilarda tabiatga ongli munosabatni tarbiyalash, tabiatni sevish, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilish, tabiat oldidagi mas’uliyatni anglash malakasini hosil qilish kabilar ekologik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

3. O‘quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda “Musiqa madaniyati” darslaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Bunda ta’lim maqsadlari bilan birga ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O‘quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy printsiplariga rioya qilish hamda ta’lim-tarbiya usul va vositalaridan unumli foydalanish alohida axamiyatga ega.





5. Atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishda quyidagilardan foydalanish mumkin: tabiat haqida qo'shiqlar, she'rlar, hikoyalar aytib berish, o'quvchilardan so'rash, bog'larga, dalalarga, hayvonot bog'lariga sayohatlar uyushtirish va hokazo.

6. O'qituvchining o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatini shakllantirishga har tomonlama tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

7. "Musiqa madaniyati"ni o'qitish jarayonida bevosita o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish vositalaridan foydalanish pedagogik maqsadlarga erishishda yuqari natijalar beradi.

8. O'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishning ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyati kattadir.

9. Atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va shakllari mavjudki, ulardan oqilona foydalanish zarur hisoblanadi.

10. O'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish usullarining xilma-xilligi o'quvchilarining nafaqat atrof-muhitga munosabati, balki bilim darajasi, o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

11. O'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish jarayonida ekologik tarbiyani har bir mavzuga bog'lash, unda ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalanish, o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olish kabi didaktik qoidalarga rioya qilish zarur.

12. O'quvchilarini ekologik yo'nalishdagi musiqiy tadbirlarga jalb etish, ularning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish orqali ham ko'zlangan maqsadlarga erishishga olib keladi.

13. O'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish nafaqat dars sharoitida, balki darsdan tashqari shart-sharoitlarda ham davom etadi. Uni tashkil etishning samarali shakl va usullari, vositalari juda ko'p. Ulardan unumli foydalanish o'qituvchining pedagogik malaka va mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "2030 yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2025 yil 15 maydag'i PQ – 184 son qarori.

2. "Uzbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish Kontseptsiyasi" Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 27 maydag'i 434-son qarori.

3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: «O'qituvchi», 2004. - 48-79 b.

4. Mavlonova R va boshq. Pedagogika.–T.: «O'qituvchi», 2011. - 39-98 b.

5. Mahmudov Yu. Ekologiya. O'quv qo'llanma.–T.:«O'qituvchi», 1997.

6. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik. Nurmatov H., Norxo'jaev N. –T., 2019.

7. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. Nurmatov H. va b. –T., 1999.

8. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. Nurmatov H., Norxo'jaev N. –T., 2002.

9. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. O.Ibragimov. –T., 2004.



10. Musiqa. 5-sinf uchun darslik. Mansurov A., Karimova D. –T., 2004.
11. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Begmatov S. va boshqalar. –T., 2001
12. Musiqa.7-sinf uchun darslik. Ibrohimov O., Sadirov J. –T., 2004. Musiqa.
13. Otaboev Sh. Inson va biosfera. - T.: «Fan», 1995. - 37- 68 b.
14. To‘xtaev A. Ekologiya. – T.: «O‘qituvchi», 1998, 12- 68 b.
15. Turdiqulov E. Ekologik ta’lim. – T.: «O‘qituvchi», 1992. - 54 - 77 b.
16. Xolliev I. Ekologiya. – T.: « Mehnat», 2001. - 35- 76 b.
17. Nuraliyeva, Z. (2025). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR Ning ESTETIK TARBIYASIDA MUSIQANING O‘RNI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(1), 67–69. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/42981>.
18. Khayrov Rasim., Inoyatov O.S., Nuralieva Z.A., Xudoyberdiev D.R., Mirzaqulov I.X. APPLICATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS. <https://cahiersmagellanes.com/index.php/CMN/article/view/1033/833>.
19. SHARQ MUTAKKAKARLARINING AXLOQ-ESTETIK PRINSİPLARI: ZAMONAVIY TA'LIMDA QO'LLANISH. (2025). Sun'iy intellekt xalqaro jurnali , 5 (05), 1489-1494. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677>.
20. Ismailova Sevinch, & Yulyaxshiyev Sherali. (2025). MAK TABLARDA MUSIQA CHOLG'U ASBOBLARINI O'RGATISH YO'LLARI. Ta'limning Zamnaviy Transformatsiyasi, 19(2), 141–145. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/tzatra/article/view/87881>.

